

NEW UZBEKISTAN: INCLUSIVE EDUCATION AND NEW REFORMS

Bekjon Salihovich Ismoilov
Tashkent State Law University
independent seeker

Abstract: The thesis provides a comprehensive analysis of the issues of inclusive education for people with disabilities. In addition, the thesis focuses on issues that need to be addressed in the development of inclusive education.

Keywords: People with disabilities, inclusive education, government, people with disabilities

YANGI O'ZBEKISTON: INKLYUZIV TA'LIM VA YANGI ISLOHOTLAR

Bekjon Salihovich Ismoilov
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tezisda nogironligi bo'lgan shaxslarni inklyuziv sharotlarda ta'lif olishini ta'minlash masalalari atroficha tahlil qilingan. Bundan tashqari, tezisda, inklyuziv ta'lifni rivojlantirishda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nogironligi bo'lgan shaxslar, inklyuziv ta'lif, davlat, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar

O'zbekistonda jamiyat hayotini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar davom etayotgan bir davrda ta'lif sohasi samaradorligini muntazam oshirib boorishga davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, mamlakat kelajak poydevori bo'lgan yosh avlodlarning chuqur hamda puxta bilim olishlarida ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rincutadi. "Yangi

O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lif-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz¹.

Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lif olish huquqi masalalariga inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasida ham alohida e'tibor qaratilgan. "Har bir inson ta'lif olish huquqiga ega. Ta'lif olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiyligini ta'lif tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lif majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'lifi hammaning qurbi etadigan darajada bo'lishi, olyi ta'lif esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak.

Ta'lif inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lif barcha xalqlar, iraqiy va diniy guruuhlar o'rtaida bir-birini tushunish, xayriyohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak. Kichik yoshdagagi bolalari uchun ota-onalar ta'lif turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir.² O'zbekiston Respublikasi Ta'lif to'G'Risidagi Qonunning 20-moddasiga muvofiq, Inklyuziv ta'lif alohida ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lif oluvchilar uchun ta'lif tashkilotlarida ta'lif olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lif tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.³ Nogironligi bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv sharoitlarda o'qitish masalasida so'z borar ekan, bu ta'lif shakli, dastavval bu ularning ixtiyoriy tanlovidagi imkoniyat bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Bizga ma'lumki, inklyuziv ta'lif qo'shimcha ehtiyojli bolalarni sog'lom tengqurlari bilan bir xil sharoitda ta'lif olishini nazarda tutadi. Ya'ni, Inklyuziv ta'lif — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqlilagini inobatga olgan holda ta'lif muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Shu ma'noda, bu ta'lif shakli tashkiliy-huquqiy va metodologik yondashuvlarni talab etadi. Inklyuziv ta'lif jarayonlarini samarali tashkil etish uchun O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil Murojaatnomasi 29-dekabr. <https://president.uz>

² Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi. <https://constitution.uz>

³ **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TA'LIM TO'G'RISIDA** 2020-yil 23-sentabr,O'RQ-637-son Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)

borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalar aro guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lishi kerak. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalshtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra "**Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi**" fikri bilan ham tasdiqlash mumkin. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim. Bizga ma'lumki, O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim shakli amaliyotga bosqichma bosqich tadbiq etilayotgan yangi o'quv jarayonidir. Shu sababli bu borada ta'lim sohasida yetarli tajriba shakllanmagan. Negaki, qo'shimcha ehtiyojli bolalar ta'limi O'zbekiston sharoitida mavjud imkoniyat va resurslardan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirilgan maxsus internat maktablarda tashkil etib kelinadi. Demoqchi bo'lganimiz, inklyuziv ta'lim amaliyoti milliy ta'lim tizimida to'laqonli yo'lga qo'yilmagan. Bu holatni bir necha faktorlar asosida izohlash mumkin bo'ladi. Birinchi navbatda, O'zbekiston milliy qonunchiligida aynan inklyuziv ta'lim jarayonlarini yuridik jixatdan tartibga soladigan huquqiy asoslar yetarli emas. To'g'ri, 23.09.2020 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonunning 38-moddalarida mamlakatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida huquqiy-normativ meyorlar belgilangan. Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta'lim o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishlik uchun ta'lim sohasi doirasida inklyuziv ta'limga mo'ljallangan maxsus qonun qabul qilinishi zarur. Alovida e'tibor talab qiladigan bu o'quv jarayonlarini xalqaro normative va standartlarga muvofiq yo'lga qo'yish uchun yuqorida sanab o'tilgan huquqiy meyorlarning o'zi yetarli emas degan fikrdamiz. Ikkinchi navbatda, bugungi kunga qadar ta'lim sohasi amaliyotida inklyuziv o'quv ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uzuksizlik tamoyili asosida olib borish ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari deyarli ishlab chiqilmagan. Hech kimga sir emaski, milliy ta'lim tizimiga inklyuziv muhitni olib kirish murakkab jarayon sanaladi. Shu sababdan, bu jarayonlarni ijtimoiy-huquqiy jixatdan tartibga solishda chuqur va puxta ishlab

chiqilgan mixanizmlar bo'lishi talab etiladi. Bu mexanizmlar inklyuziv ta'lim bilan bog'liq munosabatlarni shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Uchinchidan, umumta'lim va inklyuziv ta'lim o'quv jarayonlarining o'zaro uzviylikda amalgalashirilishini ta'minlovchi ta'lim davlat dasturlari ishlab chiqilib amaliyatga tadbiq etilmagan. Inklyuziv o'quv ta'limini samarali joriy qilish masalasi kun tartibiga olib chiqilar ekan, bu borada davlat dasturlarining ahamiyati o'ziga xos ustivorlik kasb etadi.

Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining vazifasi
 Agar sinfda ko'zi yaxshi ko'rmaydigan o'quvchi bo'lsa birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qilib, uni ko'z vrachi mutaxassisiga ko'rsatishni tavsiya qilish kerak.

- Ba'zida bolaning ota-onasi ko'zi ojizligini yashirishga harakat qiladilar. Oddiy maktab sharoitida ko'zga zo'r berish qanday oqibatlarga olib kelishini o'ylamaydilar. O'qituvchi bu tomonlarini ham ota-onalarga tushuntirib o'tishi lozim.
- Ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalarni o'z vaqtida aniqlamaslik, ularning ulgurmasligiga, so'ngra esa ta'lim-tarbiyadagi buzilishlarga olib kelibgina qolmay, balki busiz ham ko'zdagi nuqsonni yanada og'irlashtirib yuborishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Shuni unutmaslik kerakki, umumta'lim maktab o'quvchisi uchun oddiy bo'lgan ko'pgina mashg'ulotlar masalan egilish, qattiq sakrash, jismoniy tarbiya darsida og'irliklarni ko'tarish kabilalar ham bolaning ko'rish qobiliyatiga zarar etkazishi mumkin.
- O'qituvchu sinfda ko'zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko'rgazmalar tayyorlab, dars o'tishi lozim.
- Bolaning ko'rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko'zoynak taqishni tashkillashtirish lozim.

Umuman, umumta'lim mакtablarida o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarga o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil qila bilish har bir o'qituvchini mas'uliyatli burchi bo'lib qolishi kerak.

Inklyuziv ta'lim o'quv jarayonlarini tashkil etish, uni amalgalashirish tartibini belgilashda sohaviy maxsus davlat dasturlari alohida o'ringa ega bo'ladi. Inklyuziv ta'limga oid davlat dasturlarining qabul qilinishi bu borada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlaydi. To'rtinchidan, xalq ta'limi tizimida nogironligi bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv tartibda ta'lim olishini ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuvlar optimal darajaga ega emas. Bizga ma'lumki, qo'shimcha ehtiyojli bolalarni umumta'lim mакtablarida inklyuziv sharoitda o'qitish ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalgalashirish zarur. O'z navbatida,

pedagogic-psixologik hamda korrekcion kompleks yondashuvlar inklyuziv ta'lim o'quv jarayonlarining muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Beshinchidan, umumta'lim muassasalarining moddiy texnik taminoti ta'lim inshootlarida barqaror inklyuziv muhit barpo etish uchun yaratilgan shart-sharoitlar e'tibori bilan talab darajasida emas. Xulosa o'rniда aytish mumkinki, nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning 07.06.2021 yilda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mактабда ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'r ganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va ta'limni xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlashgan holda olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, asosiysi, ta'lim sifati yaxshilandi, o'qituvchi va muallim mehnati ulug'landi.

Bu esa, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, yangi O'zbekiston, yangi Renessans davrining boshlanishiga asos, desak sira mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqidan. 22.02.2021// <https://review.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoyevning-bmt-inson-huquqlari-boyicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil Murojaatnomasi 29-dekabr. <https://president.uz>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. <https://constitution.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi qonuni. 15.10.2020 2-M.// <https://lex.uz/docs/-5049511>
5. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya protokoli. 2013 5-B.
6. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TA'LIM TO'G'RISIDA** 2020-yil 23-sentabr,O'RQ-637-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)